

## MULOQOT VA KOMMUNIKATSIYA O'RTASIDAGI FARQLAR

Andijon davlat chet tillar instituti  
Ingliz filologiyasi, o'qitish  
metodikasi tarjimashunoslik fakulteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili  
3-kurs talabasi Shohobidinova Sarvinoz Xusandbek qizi

[sarvinozshohobidinova@gmail.com](mailto:sarvinozshohobidinova@gmail.com)

Andijon viloyati, Asaka tumani  
+998 91 172 22 73

Annotatsiya: Maqolada muloqot va kommunikatsiyaning nazariy asoslari, turlari va funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, kommunikatsiya madaniyati va uning jamiyatdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muloqot, kommunikatsiya, verbal muloqot, noverbal muloqot, raqamli kommunikatsiya, axborot almashinuvi, muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya

Muloqot- bu ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasidagi fikr almashish, g'oyalar bilan o'rtoqlashish jarayonidir. Kommunikatsiya esa yanada kengroq tushuncha bo'lib, axborotni bir joydan ikkinchi joyga yetkazish, uni shakllantirish va qabul qilishning barcha turlarini o'z ichiga oladi, shu jumladan ommaviy kommunikatsiyani ham. Muloqot Shaxsiy xususiyatlari: Shaxslararo munosabatlar, hamkorlik va o'zaro tushunishga qaratilgan. Maqsadi: G'oyalar, fikrlar, his-tuyg'ularni baham ko'rish va atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunish. Misoli: Do'stlar bilan suhbat, hamkasblar bilan jamoada ishlash. Kommunikatsiya Axborotni uzatish: Axborotni yaratish, uni qandaydir vosita (matbuot, televideniye, internet) orqali katta auditoriyaga yetkazish jarayoni. Ommaviy kommunikatsiya: Axborotni katta, xilma-xil auditoriyaga yetkazishga qaratilgan jarayon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari va nazariyalari

(masalan, erkin matbuot nazariyasi) mavjud. **Misoli:** Gazeta, teleko'rsatuv, radioeshittirish, internetdagi xabarlar. Asosiy farqi Muloqot - bu shaxsiy, ikki tomonlama va qisman sub'ektiv jarayon. Kommunikatsiya - bu ommaviy, keng qamrovli, axborot uzatish jarayoni. Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir birlari bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj tug'iladi. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining asosiy unsuri hisoblanadi. Psixologiya lug'atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi: 1. Muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni; 2. Muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishidadir. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va persektiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Shuningdek, muloqotning vazifalari (funktsiyalari) ham mavjud. Muloqotning funktsiyalari xilma-xil bo'lib, eng keng tarqalgan B.F. Lomov taklif etgan tasnifga ko'ra ular quyidagilardan iborat. 1. Informatsion-kommunikativ funksiya – axborot almashinuvini ta'minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar, tizimlar orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal (unda belgilar tizimi sifatida nutq ishlatiladi) va noverbal (unda nolisoniy belgilar tizimi ishlatiladi) kommunikatsiya farqlanadi. Noverbal kommunikatsiya bir necha shakldan iborat: - Kinetika (imo-ishora, mimika, pantomima) - Paralingvistika (ovoz lokalizatsiyalari, pauzalar) - Proksemika (masofa va vaqt me'yorlari) - Vizual aloqa (ko'zlar orqali) - Takesika (jismoniy aloqa) 2. Kishilar muloqot jarayonida verbal, jismoniy, noverbal yo'llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullashtiruvchi va korrektsiyalovchi tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin. 3. Affektiv-kommunikativ funksiya – inson emotsional sohasining regulyatsiya (boshqarish) qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional

holatlarining eng muhim determinantidir. Chunki turli hissiy holatlar muloqot jarayonida paydo bo‘ladi va o‘zgaradi. L.A. Karpenko taklif<sup>4</sup> etgan tasnifga ko‘ra muloqotning quyidagi vazifalari ajratiladi: - aloqa o‘rnatish vazifasi – suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash - informatsion vazifa – suhbatdosh bilan muayyan ma‘lumotlar, fikr va rejalarni almashish; - faoliyatga undash – suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullash (rag‘batlantirish) - koordinatsion vazifa – suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish;- tushunishni ta‘minlash vazifasi – suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;- amotiv vazifa –suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg‘otish hamda ularni o‘zgartirish; - munosabat o‘rnatish vazifasi – munosabatlar tizimidagi shaxsiy o‘rinni, mavqeyini aniqlash; - ta‘sir ko‘rsatish vazifasi – suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o‘zgartirish; Demak, muloqot murakkab polifunksional, ya‘ni ko‘p vazifali hodisadir. Muloqot – shaxslararo munosabatlarning asosiy ko‘rinishi bo‘lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta‘sir o‘tkazadilar, tushunadilar. Amerikalik jurnalist G.Lassuel<sup>6</sup> 5 unsuridan iborat bo‘lgan kommunikativ jarayonning quyidagi modelini taklif etadi: Kim (axborot kim tomonidan uzatilmoqda) Nima (qanday axborot uzatilmoqda) Qanday (axborot qanday yo‘l bilan uzatilmoqda) Kimga (axborot kimga uzatilmoqda) Qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi) Kommunikativ jarayon aksial (bunda axborot ayrim konkret odamlargagina yo‘naltiriladi) yoki retial (bunda axborot bir qancha ehtimol qilinayotgan retsipientlarga yo‘naltiriladi) xarakterda bo‘lishi mumkin. Kommunikator retsipient uni qanchalik tushunayotganini —kommunikativ rollar<sup>1</sup> o‘zgargach biladi. Chunki retsipient kommunikatorga aylanib avvalgi kommunikatorga qabul qilgan axborotning mazmunini qanday tushunganligini bildiradi. Kommunikatsiyaning 2 ta asosiy verbal va noverbal turi mavjud. Verbal muloqotning belgilar tizimiga kishilar nutqi kiradi. M.Y.Konavalenko va V.A.Konavalenkolaning o‘quv qo‘llanmalarida keltirilishicha —Nutq axborotni uzatishning asosiy vositalaridan biridir. Nutqda orqali til o‘zining

kommunikativfunksiyasini bajaradi<sup>7</sup>. Noverbal muloqot – noverbal xabarlar orqali kishilarning o‘zaro ma‘lumot almashinuvi. Shuningdek, ushbu muloqot turini o‘rganishga paralingvistika, ekstralingvistika, psixosemiotika hamda sotsiolingvist olimlar ham qiziqish bildirgan. Ko‘p izlanuvchilarning fikricha —noverbal kommunikatsiya<sup>8</sup> termini so‘nggi yillarda juda keng ma‘noni o‘ziga qamrab olgan tushuncha ekanligini ta‘kidlab, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu termin —nutqsiz till nomini olganini aytishmoqda. So‘nggi yillarda tilshunoslikda noverbal kommunikatsiyani o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar bajarilganini aytib o‘tish kerak. Jumladan, G.E. Kreydlining izlanishlarini bu sohadagi muhim ish deyish mumkin. U o‘zining —Noverbal semiotika: tana tili va tabiiy till<sup>9</sup> nomli risolasida noverbal semiotikani tashkil etuvchi bir nechta fanlarni sanab o‘tadi.

1. Paralingvistika – noverbal kommunikatsiya jarayonidagi tovushlar kodlarini o‘rganuvchi fan
2. Kinesika - noverbal kommunikatsiyani tashkil etuvchi imo-ishoralarni o‘rganuvchi fan
3. Auskultatsiya – muloqot jarayonidagi tovushlarning kishilar tomonidan qanday qabul qilinishini o‘rganuvchi fan.
4. Gaptika – kommunikatsiya jarayonidagi taktil harakatlarni tahlil qiluvchi fan.
5. Gastika – oziq-ovqat maxsulotlarining kommunikatsiya jarayoniga ta‘sirini o‘rganuvchi fan.
6. Olfaksiya – kommunikatsiya jarayonida turli hidlar, oforlarning muloqotga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganuvchi fan.
7. Proksemika – suhbatdoshlar orasidagi masofaning muloqot jarayonidagi ahamiyatini o‘rganuvchi fan.
8. Xronemika – muloqot davomiyligi, muloqot vaqti va uning struktur semiotik jihatlarini o‘rganuvchi fan.
9. Sistemologiya – insonlarni o‘rab turgan muhit, ularning o‘y-fikrlarining muloqotga ta‘sirini o‘rganuvchi fan.

Noverbal kommunikatsiya muloqot jarayonida muhim vazifani bajaradi va aynan

suhat jarayonida kerakli vositalarni tanlash nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikatsiyaning bu turini o'rganishda psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya fanlarining ham ahamiyati katta. Zero, biror voqea haqida fikr bildirishda odamlar avvalo o'z dunyoqarashi, jamiyatdagi mavqei va o'zi yashab kelayotgan muhitdan kelib chiqqan holda yondoshadi, bu esa yuqoridagi fanlarning tilshunoslik bilan uzviy bog'liqligidan darak beradi. Tilshunoslik fani murakkab, lekin boshqa tomondan olib qaraganda qiziq fan. Keltirilgan ilmiy qarashlarga asoslanib shuni aytish mumkun-ki, noverbal

kommunikatsiya vositalari muloqot jarayonida muhim vazifani bajaradi hamda nutqni to'ldiradi kommunikantlarning emotsional holatlarini chuqurroq anglashda muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 .
3. I.A. Karimov. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq. T. «O'zbekiston» nashriyoti. 2004.
4. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
5. V. Karimova. Psixologiya. (o'quv qo'llanma). T. 2002.